

XALQ MUSIQA IJODIYOTIDA TURLI JANRDAGI QO'SHIQLAR OHANGDOSHLIKLARINING UMUMIY VA FARQLI XUSUSIYATLARI

YuldoshevUmidjon Yuldoshevich

Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqqa madaniyati" fakulteti dotsenti, PhD.

Abdumalikova Shaxzoda

Toshpo'latova Dildora

"Musiqqa ta'limi" yo'nalishi 1-kurs talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek xalq musiqqa ijodiyotida ohangdoshlik xususiyatlarining umumiy va farqli tomonlari, mazkur xalqning xalq og'zaki ijodi namunalarining mazmun-mohiyatidagi musiqiy ifodaviylik xususiyatlari kabi masalalarni ham qamrab olingan bo'lib, bu o'z navbatida xalq qo'shiqlari turli janrlarining lmiy-nazariy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kvarta, kuy, o'quvchanlik, ohanglar, vazminlik, obrazli mazmun, ritmik sur'at, mifologik dunyoqarash, qo'shiq, she'riy mazmunlik, kuychanlik xususiyati.

Musiqqa va san'at sohasida xalq og'zaki ijodi namunalarining mazmun-mohiyatidagi musiqiy ifodaviylik xususiyatlari har bir janr turkumlarini ifoda qiladi. Bu - qat'iy ohang yozuvida hamda musiqiy ifodaviylik nuqtai nazaridan kuylarda ketma ketlik harakati namoyishlari birinchi o'rinda turadi, shunda buning harakati sekunda bo'yicha harakat qiladi. Sakrashlarda esa kvinta, kvarta, seksta, tertsiya.harakatlari almashilib keladi. Bazi intervalarda esa nona va septimada bir-biriga o'tishlar taqiqlanadi. Shuningdek, qolgan barcha kamaytirilgan va orttirilgan intervallarning bir-biriga o'tishlari taqiqlanadi.

Ohang materialining to'xtovsiz rivojlanishi - qat'iy yozuvning kuy oldiga qo'ygan muhim talablaridan biridir. Ushbu talablarni buzuvchi usullarga yo'l qo'yilmaydi. Bular: ohangning aniq yoxud sekvensiyali takrori va bir ohangning www.pedagoglar.org

o'ziga tez-tez qaytaverishlardir. Uzluksiz, o'quvchanlik, ravonlik rivojlanish ohang kontrasti orqali ham amalga oshiriladi: bunda o'ziga xos, individuallashtirilgan ohanglar nisbatan neytral ohanglar bilan almashinib keladi. [1.].

Ohangdoshliklardagi ikki ovozliklarning birga bo'lib ijro etib yangrashi, bir necha intervallarni yuzaga keltirib chiqaradi. Garmoniyaning ta'siri bo'lgani uchun uning ovozlarida ulami jamlab, birgalikdagi jarangini boshqaruvchi, yaxlit bir butunlikka birlashuvi tufayli yuzaga keladi.

Obrazli mazmunning aniqligi (qo'rqmas-nazokatli, shodlik g'am, vazminlik-intiluvchanlik va hk.). Janr rang-barangligi: a) epik, dramatik, lirik va ularning har xil bo'yoqlari; b) nafaqat xor, balki vokal va cholg'u musiqa vositasi va ularning janrlari - raqs, ariya rechitativ, pastoral va h.k. Erkin uslubda kuy va mavzu tushunchalari ajraladi, ritmik sur'atning doimiy yangilanib turishi, diapazonning tobora rivojlanib borishi, lad beqarorligi, erkin tarzda rivojlanib yoyilish, to'liqsimon harakatga xosdir. Bularning barchasi go'yo "cheksiz" toifadagi kuyni yaratgandek. Bunday toifa kuychan va deklamatsion kuychan xarakterli kuylar uchun xosdir. [1.].

Ovozlardagi kuy davomiyligining intonatsion manbasi musiqiy izchillik tamoyillari hisoblanadi. Polifonik kuylarda erkin uslubdagi kuylar – bu boy jarayon, siyraklashuvining murakkab va individuallashtirilgan ohanglar (relef-fon) quyuvlashuvi deb ataladi.

Asosiy salmoqli hissada xalq qo'shiqlarining yuksak ohangdorlik va badiiy jihatdan esa manavi an'anaviy qo'shiqlardan iborat bo'ladi. Hozirda zamonamizda hayot muttasil harakati bo'lgani bois unda hozirjavoblik bilan yaratilayotgan qo'shiqlar ham ijod qilinmoqda. Bunda kelib chiqqan holda yirtimizdagi kechirmalarini ifodalovchi, orzu o'ylari o'y hayyolari yangi qo'shiqlarda quloqa eshilib kelmoqda. Bunda yaratilayotgan an'anaviy xalq qo'shiqlari ruhida jozibadorligini yoritib beruvchi omil ko'payib bormoqda. An'anaviy xalq qo'shiqlarida yuzadagi ma'noni tinglovchi birdaniga tushinib olishga qiynaladi, irimlarni, ufr-odat, e'tiqodlarni, ibtidoiy tasavvur-tushunchalari, xalqning tarixiy-mifologik dunyoqarashiga shularga tegishli ichki dunyosiham bo'ladi.

Shu xususiyati bilan ular hozir yaratilayotgan qo'shiqlardan birmuncha farqlanib turadi. O'zbek xalq qo'shiqlari yaxlit tizim holida shakllangan bo'lib, shakliy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular janr mansubiyati, ijro maqsadi, o'rni va vazifasi jihatidan ikki katta guruhga bo'linadi: I. Marosimga aloqador xalq qo'shiqlari yoki marosim folklori: mavsumiy, oilaviy-maishiy va so'z magiyasiga mansub marosimlarga daxldor qo'shiqlami o'z ichiga oladi. II. Marosimga aloqasi bo'lgan xalq qo'shiqlari yoki nomarosimiy folklor bu guruhga mansub qo'shiqlar ham janriy shakli, ijro xususiyati va motivlari hamda ijtimoiy-estetik vazifasiga qarab to'rt ko'rinishda namoyon bo'luvchi mehnat qo'shiqlari. Lirik qo'shiqlar. tarixiy qo'shiqlar va termalami qamrab oladi. Qo'shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta'sir etish qudratiga ega. U syujet qo'shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an'analari, a.xloq iminialari o'z aksini topgan. [2.].

Qoshiqlarni qay tarzda yozilganini, qanaqa ichki olami bilan yaratilgani uning ruhiyatidan bilsa bo'ladi. Xalq qo'shiqlaridan shoirlar ruhan tasirlanib ohangi va shaklini stilizatsiya qilib she'rlarni yaratishmoqda. Bunday yutuqdan kelib chiqqan holda o'zbek she'riyatida bir umirli xalq qo'shiqlari vazni, alla, baxshiyona singari badiiy-kompozitsion folklorizmlar, ohangi va motivida bitilgan yaratilgan badiiy-ma'naviyfolklorizmlar va ulardagi poetikobrizlaridan ijodiy foydalanib kengayib tobora saqlanib bormoqda. Ayni vaqda bunday xalqona ruhdagi qo'shiqlar tobora tanilmoqda.

Xalq afsunlari ham o'sha buyruq ohangida ijro etiladi. Xalq afsunlarining qo'llanish doirasi g'oyat keng. Ularning juda katta qisimi turli xastaliklarni davolash yoki keltirib chiqarish uchun o'qilsa, vana bir qism i odam lar orasidagi m unosabatlarni isitish yo sovihsit maqsadida o'qitiladi. Badiiy matnlari, asosan, she'riy shaklda tarqalgan. Ular izchil she'riy shaklda, turli hajmda uchraydi. Badiklarning asosiy mazmuni bemor badanidan kasallikni quvishga qaratilgan. Shu sababli ularda ko'pincha do'q-po'pisa, murojaat, imperativ ohang yetakchilik qiladi. Bunda ohangdoshlik ko'pincha alteratsiyalar zamirida kechib, maqollarga ritmik o'ynoqilik bag'ishlagan. Xususan, ikki va undan ortiq qismli maqollarda alliterasiya qismlami ohangdoslilik asosida o'zaro bog'lab turuvchi yetakchi estetik vazifani

bajargan. [5.].

Allalar har qanday holatda kuylanadi. Allalarni oddiygina qilib dekloratsiya yoki gapirib berish mumkin emas. O'zbek allalarida monoton ohangi mushtarak xususiyatdir. Onaning ijro etayotgan vaqtida monoton ohangi uning kayfiyat va qay holati ekanligiga chnbarchas bog'liq bo'ladi. Onaning kayfiyati yo'q bo'lgan payitida iztirob chekayotganida ma'yus tortuvchi, xafalik kezlarida allaning monoton ohangi yoqimli darajada bilinib turadi.

Qo'shiq va kuylarning erkin holdagi yalla lapar, terma, qo'shiq, ashula shunga ohshash janirlarni o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqan holda xar hil darajada kuylanishi va turli vaziyatlarda kuylash mumkin. Ularda she'riy mazmunlik, kuychanlik xususiyati ijro vaziyatlariga bog'liq bo'lmay ma'lum mavzuga egadir. Xalqimiz musiqa amaliyotida qo'shiq janirining kengaygan janrlardan biri hisoblanadi. Mazkur asarlarda odamlarning insonparvarligi haqida, mehr-oqibati haqida xalqlar do'stligi va baxt-saodat yo'lidagi kurashi, inson qadriyatlarining erkinligi jumlalarda kuylanadi

Kuyni tushunib o'rganish uchun qayta va qayta chalishga tog'ri keladi. Qo'shiqda chalinayotganda musiqaning ohangi yengil yoki sodda bo'lsa o'quvchilar uni ilgab o'rganib olishadi. Kuyni tushunishda ular kuyni ohangini sof ohangini va to'g'ri, jozibasiga kirishib ularni anglab olishiga qiynalishadilar. Kuyni yaxshilab boshidan ohirigacha astoydil o'rgatish uchun dangasalik qilish kerak bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.F.Muxtarova.Polifoniya.(Darslik).-T.:“Barkamol fayz media”,2017.B21-100
- 2.Oxunjon Safarov.O'zbek xalq og'zaki ijodi.Toshkent: “Musiqa”, 2010. B 82.
- 3.Yuldoshev,U. Y. (2021). Pedagogical - Psychological Approaches To The Professional Preparation Of The Future Music Teacher. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 2(10), 56-61.
- 4.Yuldoshev,U.(2023).EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC

EVENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HUMANITY RESEARCH*, 3(12), 342-345.

5.Юлдошев, У. Ю. (2019). Муסיқа уқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (82)), 47-53.

6.Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. *Молодой ученый*, (22), 207-209.

7.Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 87-89).

8.Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

9.Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИ МАСАЛАСИ. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 30(2), 133-139.

10.Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(3), 141-146.

11.Yuldoshevich, Y. U. (2024). ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ТА'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING O'RNI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 5(1), 223-226.